

Date: 7<sup>th</sup> March-2026

## BACHADONDAN TASHQARI HOMILADORLIKDA UTTNING AHAMIYATI

Nishanova Yulduz Khatamovna  
Umirova Ezoza

**Annotatsiya:** Bachadondan tashqari homiladorlik 35 yoshdan katta, anamnezida ko'p marotaba abortlar bo'lgan, bachadon ichi kontratseptiv vosita qo'llangan hamda ayol organizmida jinsiy gormonlar — estrogen va progesteron yetishmovchiligi kuzatiladigan holatlarda ko'proq uchraydigan patologik jarayon hisoblanadi.[1] Ushbu holatni klinik jihatdan unga o'xshash bo'lgan kasalliklardan, jumladan tuxumdon kistasining yorilishi, kista oyoqchasining buralishi va tuxumdon apopleksiyasidan differensial tashxislash muhim ahamiyatga ega.[2] Hozirgi kunda ultratovush tekshiruvi (UTT) transvaginal datchiklar yordamida bachadondan tashqari homiladorlikni erta aniqlash hamda baholashning eng samarali, noinvaziv diagnostik usullaridan biri hisoblanadi.[1,2]

**Kalit so'zlar:** transvaginal UTT, bachadondan tashqari homiladorlik, erta tashhislash.

**Ishning maqsadi:** Bachadondan tashqari homiladorlikni erta aniqlashda transvaginal UTT usulining diagnostik ahamiyatini baholash.

**Metod va usullar:** Tadqiqotga Toshkent davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasining ginekologiya bo'limida bachadondan tashqari homiladorlikka gumon qilingan 60 nafar ayol (o'rtacha yosh  $35 \pm 2$  yil) kiritildi. Transvaginal ultratovush tekshiruvi va qonda xorionik gonadotropin (XGCh) darajasi natijalari olindi. Barcha bemorlarda kichik chanoq a'zolari transvaginal datchik yordamida tekshirilib, bachadon bo'shlig'ida homila tuxumining mavjudligi, adneksal sohada patologik tuzilmalar, erkin suyuqlik hamda trofoblastik to'qima belgilari baholandi. Qonda XGCh miqdori dinamikada aniqlanib, ultratovush belgilariga mosligi tahlil qilindi. Olingan UTT ma'lumotlari operatsion yoki klinik kuzatuv natijalari bilan solishtirilib, usulning diagnostik samaradorligi baholandi.

**Tadqiqot natijalari:** Transvaginal ultratovush tekshiruvda bachadondan tashqari homiladorlikka xos bo'lgan belgilar — bachadon bo'shlig'ida homila tuxumining aniqlanmasligi, adneksal sohada geterogen tuzilma (gestatsion qopcha yoki embrional elementlar) mavjudligi hamda kichik chanoq bo'shlig'ida erkin suyuqlik aniqlanishi baholandi. Qonda xorionik gonadotropin (XGCh) darajasi dinamikasi ultratovush belgilariga mos ravishda tahlil qilindi. Kelgan 60 ta ayolning 15 nafari 4 haftalikda, 20 nafari 5 haftalikda, 10 nafari 6 haftalikda, 5 nafar bemorda bachadondan tashqari homiladorlik aniqlanmadi. 60 ta bemordan 55 tasida bachadon bo'shlig'ida gestatsion qopcha aniqlanmagan va 5 nafarida bachadon bo'shlig'ida qo'shimcha patologiyalar hisobiga UTT aniqlab bera olmadi va XGCh darajasi 1500–2000 mIU/ml dan yuqori bo'lgan holatlar bachadondan tashqari homiladorlik ehtimoli yuqori bo'lgan asosiy diagnostik mezonlar sifatida belgilandi. UTT natijalari va XGCh tekshiruvlari operatsion amaliyot bilan yakunlandi. Bachadondan tashqari homiladorlik tashxisi qo'yilgan



Date: 7<sup>th</sup> March-2026

bemorlarda transvaginal UTT bilan birgalikda XGCh tekshiruvi yuqori sezgirlik va aniqlikka ega ekanligi qayd etildi.

**Xulosa:** UTT natijalari operatsion topilmalar yoki klinik kuzatuv asosidagi yakuniy tashxis bilan solishtirildi. Bachadondan tashqari homiladorlik tashxisi qo'yilgan bemorlarda transvaginal UTTning sezgirliги 92,3 %, spetsifikligi 94 % va umumiy diagnostik aniqligi 96 % ni tashkil etdi. Ushbu usul klinik amaliyotda bachadondan tashqari homiladorlikni erta aniqlash va boshqa kichik chanoq patologiyalaridan differensial tashxislashda ishonchli vosita hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

<https://openresearch-hub.com/index.php/ped/article/view/818>

<https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/12313>

<http://econferences.ru/index.php/dptms/article/view/34189>